

№428, 26-noyabr, 2021 y.

**COVID
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 25-noyabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	259 699 067	(+ 638 041)
Sog'ayganlar soni	-	234 841 085	(+ 473 961)
Vafot etganlar soni	-	5 191 914	(+ 8 271)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	48 972 550	(+ 104 819)
	Hindiston	-	34 544 882	(+ 9 119)
	Braziliya	-	22 043 417	(+ 4 686)
	Buyuk Britaniya	-	9 974 843	(+ 43 676)
	Rossiya	-	9 434 393	(+ 33 558)
	Turkiya	-	8 652 172	(+ 27 592)
	Fransiya	-	7 483 282	(+ 32 591)
	Eron	-	6 092 822	(+ 4 813)
	Argentina	-	5 546 915	(+ 73 966)
	O'zbekiston	-	192 175	(+ 219)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 24-noyabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 738 387	16 054
Andijon viloyati	3 166 810	19 769
Buxoro viloyati	1 898 601	12 806
Jizzax viloyati	1 261 648	12 000
Qashqadaryo viloyati	2 385 458	46 836
Navoiy viloyati	1 199 571	3 437
Namangan viloyati	3 276 660	19 345
Samarqand viloyati	3 322 512	55 909
Surxondaryo viloyati	2 662 881	22 576
Sirdaryo viloyati	776 724	4 487
Toshkent viloyati	3 120 956	32 491
Farg'ona viloyati	3 531 923	39 107
Xorazm viloyati	2 010 268	16 838
Toshkent sh.	2 112 383	30 261
Jami	32 464 782	331 916

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



Jonson & Jonson vaksinasi birinchi marta to'liq ma'qullandi

Johnson & Johnson farmatsevtika kompaniyasi o'zining 18 yosh va undan kattalar uchun mo'ljallangan COVID-19 vaksinasi Kanada Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan to'liq tasdiqlanganligini e'lon qildi [2]. Bu mamlakat dunyoda birinchi bo'lib amerika ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'liq tasdiqlandi.

Xabar qilinishicha, qaror 43 783 kishini qamrab olgan ENSEMBLE tadqiqotining III bosqichi ma'lumotlariga asoslangan.

Uch qit'aning sakkizta davlatida o'tkazilgan tadqiqot keng aholini, jumladan 60 yoshdan oshgan ishtirokchilarning 35 foizini qamrab oldi. Tadqiqot ishtirokchilarining 40 foizida og'ir COVID-19 ga o'tish xavfi ortishi bilan bog'liq bo'lgan qo'shma kasalliklar mavjud edi [3].



Sinov natijalariga ko'ra, vakcina og'ir COVID-19 rivojlanishidan himoya qilishda 85% samarali. Shuningdek, preparat emlashdan 28 kun o'tgach, kasalxonaga yotqizish va kasallik bilan bog'liq o'limning oldini olishda yaxshi natijalarni namoyon etdi. J&J koronavirus vaksinasi 120 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan AQSH,

Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyada favqulodda foydalanish uchun tasdiqlangan.

Biroq, kompaniyaning mazkur vaksinasi bir qator xavfsizlik muammolariga duch keldi. Amerika va Yevropa regulyatorlari tomonidan dori yorlig'ida emlashdan keyin Giyena — Barre sindromining xavfi bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantirish ko'rsatildi [4].

Shvetsiya 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan odamlarga vaksinaning qo'shimcha dozalarini tavsiya qildi

Shvetsiya sog'liqni saqlash agentligi 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan odamlar uchun vaksinaning uchinchi kuchaytiruvchi dozasi tasdiqladi. Doza ustuvor maxsus tartibda berilishini tavsiya etildi [5].

Ijtimoiy ishlar vaziri Lena Hallengrenning ta'kidlashicha, 10 million aholiga ega Shvetsiyada 7 millionga yaqin odam ikkala dozani ham olgan.



Shvetsiya sog'liqni saqlash agentligi rahbari Kerin Tegmark Vissell vaktsina “pandemiyaga qarshi kurashdagi eng muhim vositamiz” ekanligini ma'lum qildi. Uning so'zlariga ko'ra, ikkita doza jiddiy kasallik va o'limdan yaxshi himoya qiladi, ammo vaqt o'tishi bilan himoya ta'siri pasayishini ta'kidladi [6].

Bangladesh mahalliy COVID-19 vaktsinasini sinovdan o'tkazishga ruxsat berdi


Mamlakat hukumati Bangladeshda yaratilgan Bangavax koronavirus vaktsinasini sinovdan o'tkazishga ruxsat berdi [7].

Mahalliy Globe Biotech farmatsevtika kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Bangavax vaktsinasi hayvonlarda o'tkazilgan sinovlardan so'ng, preparatni odamlarda sinovdan o'tkazish uchun Bangladesh Tibbiy tadqiqotlar kengashidan ruxsat oldi.



“Sinovlarda 64 nafar ko'ngilli ishtirok etadi”, dedi vaktsina ishlab chiqaruvchisi Muhammad Mohiuddin. Bangladesh Tibbiy tadqiqotlar kengashi, agar sinovlarning ikkinchi va uchinchi bosqichlari vaktsina xavfsiz va samarali ekanligini isbotlasa, Bangavaxdan keng foydalanishga ruxsat etiladi [8].

Rossiyada o‘smirlar uchun COVID-19 vaksinasi ro‘yxatga olindi



Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligi 12 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun koronavirusga qarshi vaksinani ro‘yxatdan o‘tkazdi. Preparat kam konsentratsiyali “Sputnik V” bo‘lib, xavfsizdir. Virusologlarning fikriga ko‘ra, o‘smirlarni emlash nafaqat o‘zlari uchun, balki katta avlod uchun ham muhimdir.

O‘smirlar uchun tasdiqlangan COVID-19 vaksinasi haqida birinchi bo‘lib preparatni chiqaruvchisi ma‘lum qildi. Preparat Gamaleya markazi mutaxassislari tomonidan yaratilgan bo‘lib, Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligi ro‘yxatga olgani to‘g‘risida e‘lon qildi [9].

Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligi qaror ijobiy ekspert xulosasi asosida qabul qilinganiga aniqlik kiritgach, “Sputnik M” zarur klinik sinovlardan o‘tkazildi va uning samaradorligi, hamda sog‘liq uchun xavfsizligini ko‘rsatdi.

“Preparat “Sputnik V” vaksinasi bilan bir platformada yaratilgan bo‘lib, preparat 70 dan ortiq mamlakatlarda tasdiqlandi, shu bilan birga dunyoda 100 milliondan ortiq insonlar ushbu preparat bilan emlandi”, — dedi Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligi vakili.



O‘smirlar uchun ishlab chiqilgan vaksina ikkita komponentdan iborat bo‘lib, ikkinchi doza birinchi dozadan 21 kun o‘tgach yuboriladi. “Sputnik V” vaksinasi ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi. Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligining Dori vositalarining davlat reyestriga ko‘ra, preparatni kelgusi besh yil ichida foydalanish mumkin. Hujjatlar muddati 2026-yil 24-noyabrga qadar davom etadi.

Bosh vazir o‘rinbosari Tatyana Golikovaning so‘zlariga ko‘ra, 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar faqat ota-onalari roziligi bilan emlanadi. Qolgan o‘smirlar mustaqil ravishda qaror qabul qilishlari mumkin. Yil oxiriga kelib, preparat aholiga taqdim etiladi [10].





COVID
19

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (25.11.2021)
2. Johnson & Johnson Vaccine Earns First Full Approval // <https://www.the-scientist.com/news-opinion/johnson-johnson-vaccine-garners-first-full-approval-69462> (25.11.2021)
3. Johnson & Johnson COVID-19 Vaccine Fully Approved by Health Canada to Prevent COVID-19 in Individuals 18 years and Older // <https://www.jnj.com/johnson-johnson-covid-19-vaccine-fully-approved-by-health-canada-to-prevent-covid-19-in-individuals-18-years-and-older> (25.11.2021)
4. Вакцина J&J получила первое полное одобрение // <https://pharmvestnik.ru/content/news/Vakcina-J-J-poluchila-pervoe-polnoe-odobrenie.html> (25.11.2021)
5. People aged between 18 and 65 are recommended to have a third dose // <https://www.krisinformation.se/en/news/2021/november/people-aged-between-18-and-65-are-recommended-to-have-a-third-dose/> (25.11.2021)
6. Швеция рекомендовала дополнительные дозы вакцины людям в возрасте от 18 до 65 лет // <https://www.eurointegration.com.ua/rus/news/2021/11/24/7130716/> (25.11.2021)
7. В Бангладеш разрешили испытания своей вакцины от COVID // <https://regnum.ru/news/society/3432027.html> (25.11.2021)
8. Созданная в Бангладеш вакцина от коронавируса получила разрешение на испытания // <https://tass.ru/obschestvo/13009559> (25.11.2021)
9. Вакцину от COVID-19 для подростков зарегистрировали в России. Препарат поможет защитить не только детей, но и взрослых // <https://360tv.ru/news/tekst/vaktsinu-ot-kovida/> (25.11.2021)
10. В России зарегистрировали вакцину от COVID-19 для подростков // <https://www.asiaplustj.info/ru/news/world/20211125/v-rossii-zaregistrovali-vaktsinu-ot-covid-19-dlya-podrostkov> (25.11.2021)



**COVID
19**

**Coronavirus
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021